DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QIYOSIY METODDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA O'QUVCHILARDA TIL KOMPOTENTLIGINI SHAKLLANTIRISH USLUBLARI

Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi
Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya*: Maqolada dars samaradorligini oshirishda qiyosiy metoddan foydalanish haqida fikr yuritiladi. O‘quvchilarda til kompetentligini shakllantirishda bu metoddan foydalanish uslublari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar*: qiyoslash, lingvistik, obyekt, kompotentlik, axborot almashinuvi, psixologik qonuniyatlar, induksiya, tahlil, ma'nodosh so'zlar.*

Аннотация*: В этом статье идет речь о роли сопоставительного метода повышении эффективности урока. Анализируется применения сопоставительного метода в формулирование языковых компетенций у учеников.*

Ключевые слова*: сравнение, лингвистический, объект, компетентность, информационный обмен, психологические законы, индукция, анализ, синонимы*

Annotation: *This article discusses the role of the comparative method of improving the effectiveness of the lesson. It analyzes the application of the comparative method in formulation of language competencies in students.*

Key words*: comparison, linguistic, object, competence, information exchange, psychological laws, induction, analysis, synonyms.*

Olamni bilishda o‘rganilayotgan obyektni qiyoslash katta rol o‘ynaydi. Oldin o‘rganilgan obyektni yangi o‘rganilayotgan obyektga qiyoslash bilishning eng asosiy usullaridan biridir. Qiyoslash natijasida qiyoslanayotgan obyektlarning umumiy va o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi. Shuning uchun qiyoslash umumilmiy tafakkur jarayoni sifatida lingvistik tahlilning barcha metodlarida uchraydi.

Lekin lingvistik tadqiqot metodikasida bir tilning ichki tuzilishi bo‘yicha qiyoslash va tillararo qiyoslash jiddiy farqlanadi. Bir tilning ichki tuzilishi bo‘yicha qiyoslash shu tilning turli grammatik hodisalari va kategoriyalarini o‘z ichiga oladi.[58]

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida til konpetentligini shakllantirishda o’qituvchining roli kattadir. Bu o’rinda o’qituvchining erkin va aniq nutqi o’quvchilarning til konpetentligini shakllantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi. Chunki o’quvchi muomala odobini, til bilimlarini turli vaziyatlarda o’rinli ishlatishni asosan o’qituvchi timsolida anglab oladi. Muomala odobi psixologik qonuniyatlar, odob me’yorlariga tayanadi. Uning asosiy vazifalari: axborot almashuv, o’zaro ta’sir, o’zaro idrok qilish, to’g’ri amalga oshishini idora qilish. [59]

Boshlang‘ich sinflarda qiyoslash metodining eng birlamchi turini, masalan, inson nutqlarini, umuman nutqni qiyoslash tahlilini asosida o‘quvchilarda til haqidagi bilimlar bilan birga, turli vaziyatlarda bu bilimlardan o’rinli foydalanish ko’nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida ertak qahramonlarini qiyoslash tahlili asosida o’rganish usuli bilan tanishamiz.

Har qanday qiyoslash tahlil qilishga olib keladi, tahlil natijasida esa xulosa chiqariladi. Masalan, o’qituvchi o’quvchilarning e’tiborini biror multfilm yoki ertak qahramoning nutqini tahlil qilishga qaratadi. Bu jarayon uch bosqichda yuzaga keladi:

1) eslash jarayoni;

2) tasavvur jarayoni;

3) tahlil qilish jarayoni.

Birinchi jarayon makon va zamon (qachon va qaerda ko’rgan) asosida yuzaga keladi, bunda o’qituvchi o’quvchilarning eslashiga yordam beradi. Masalan, “Bo’g’irsoq” ertagini eslaymiz. Quyidagi savollar bilan murojaat qilib, qachon va qaerda ko’rgani eslatiladi:

1.“Bo’g’irsoq” ertagini bilamizmi?

2.Qachon eshitgansiz yoki ko’rgansiz?

3. Ertakda qanday qahramonlar bor?

4.Qaysi qahramonlar sizlarga yoqadi va nima uchun?

Birinchi jarayon natilasi asosida o’quvchi jadvalning birinchi ustinini to’ldiradi.

Ikkinchi jarayon induksiya asosida bo’ladi, ertak qahramonining harakati, nutqi tasavvur qilinadi. Bunda quyidagi topshiriqlar berilishi mumkin:

1. Quyonning harakatini ko’rsating.
2. Uning ovozini o’xshatib bering.
3. Bo’rining harakatini ko’rsating.
4. Uning ovozini o’xshatib bering.
5. Ayiqning harakatini ko’rsating.
6. Uning ovozini o’xshatib bering.
7. Tulkining harakatini ko’rsating.
8. Uning ovozini o’xshatib bering.

Uchinchi jarayon deduksiya asosida yuzaga chiqadi, ya’ni ertak qahramoni nutqi tahlil qilinadi. Tahlil natijasida esa qahramon nutqining o’ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. O’quvchilar har bir qahramon nutqini takrorlashi va ular orasidan eng o’xshaganlarini ajratib olib, so’ngra tahlil qilish kerak bo’ladi.

Buni quyidagi jadval orqali jamlash mumkin:

	Ertak qahramonlari	Ularning harakati	Ular nutqidagi ohang	O’ziga xos xususiyati
	quyon	chaqqon	Ovozi ingichka	qorqoq
	bo’ri	keskin	Ovozi yoqimsiz	ishonuvchan
	ayiq	Sekin va qopol	Ovozi yo’g’on	kuchli
	Tulki	ildam	Ovozi yoqimli	ayyor

Jadval orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1.Hayvonlarning harakatining tahlili natijasida ularni quyidagicha tartiblash, darajalash mumkin: quyon (chaqqon), tulki (ildam), bo'ri (keskin), ayik (sekin).

2.Nutqining tahlili natijasida ularni ikki qarama qarshi tomonga ajratishimiz mumkin (tashqi qarshilantirish), quyon (ingichka)↔ayiq (yo'g'on); bo'ri (yoqimsiz) ↔ tulki (yoqimli).

3. Hayvonlarni ichki qarshilantirish, quyon chaqqon, lekin qorqoq. Bo'ri keskin, ammo ishonuvchan (tulki ertaklarda doimo bo'rini aldab ketadi). Ayiq kuchli, lekin harakati sekin. Tulki ildam va ovozi yoqimli, ammo ayyor.

Ushbu tahlil natijasida o'quvchilar hayvonlarning harakatini, ovozini va o'ziga xos xususiyatlarni darajalanish munosabatida, ichki va tashqi qarshilantirish munosabatlarida o'rganadi.

Demak, o'qituvchi ertak qahramonlarini qiyosiy tahlil qilish orqali o'quvchilarda kuzatuvchanlik, tasavvur qilish, tahlil qilish, xulosa chiqarish hamda o'z xulosalarini aniq bayon qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

So'z ma'nolarini qiyoslash tahlili orqali o'rganish. Tabiiyki, har qanday nutqning asosiy maqsadlaridan biri tinglovchi yoki o'quvchi ongiga ta'sir etishdan iborat. Madaniy nutq esa o'sha ta'sirni yanada kuchaytiradi, tinglovchi yoki o'quvchining quruq qulog'ini emas, balki qalb qo'rg'onini, aql qal'asini zabt etadi. Shu sababli madaniy nutqda ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlarning o'z o'rni bor.

Ma'nodosh so'zlar birlashtiruvchi umumiy ma'noga ega bo'lsa-da, qo'shimcha ma'no nozikliklari, emotsional bo'yog'i, qo'llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadigan so'zlardir. A.Hojievning "O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati" kitobida bir tushunchani ifodalash uchun ikki, uch, besh va o'ndan ortiq ma'nodosh so'zlar keltirilgan. Jumladan, "azob" so'zining o'n, "vaqt" so'zining o'n bir, "uyatsiz" so'zining o'n to'rtta ma'nodoshi izohlangan. Bundan ma'lum bo'ladiki, til kishilarga ma'nodosh so'zlar qatoridan so'z tanlab olish imkoniyatlarini yaratadi. Ko'rinadiki, ma'nodosh so'zlar bir umumiy ma'no ifodalasalar-da, ular o'zaro farqli xususiyatlari sababli ularning har biri nutqda o'z qo'llanish o'rniga ega. Quyidagi jumlalarga e'tibor beraylik: *Oriq, ayoqlari ingichka, kiyimlari **juldur** dehqonlar omoch ortidan enkayib, horg'in er haydaydilar* (Oybek). *Kunduz kuni **uvadamni** ko'tarib yurishga uyalganimdan shanba kuni qorong'ilatib "Beklar begi" madrasasiga ko'chib keldim* (M.Muhammadjonov).

Misollarda keltirilgan ma'nodosh so'zlar (*juldur* va *uvada*) biror narsaning ko'p ishlatilish natijasida eskirib, yirtiq-sirtiq, dabdala holga kelganligini bildiradi[60].

Demak, bu so'zlar "eski" semasi orqali bir paradigmaga birlashadi, ularni birlashtiruvchi integral belgi ko'p ishlatilganligidir. Ammo ular o'z ichida bir-birlaridan farqlanuvchi xususiy belgilarga ham ega. Jumladan, *juldur* asosan kiyim-boshga, kam darajada ko'rpa-yostiq va boshqa buyumlarga nisbatan ishlatiladi. *Uvada* esa ko'proq

ko’rpa-yostiq va boshqa buyumlarga nisbatan qo’llanadi, kiyim-boshga nisbatan kam qo’llanadi.

Uvada so’zi kiyim-boshga nisbatan ishlatilganda, uning juldurligidan ham eskiroq ekanligini, uni kiyim-bosh deb atashga ham yaramay qolganligini bildirib, ma’noni kuchaytiradi: *Uvada paranjiga o’ralgan ayollarni, usti yupun, yalang oyoq bolalarni ko’rganda bir kimsani uchratganday uzoq to’xtab tikildilar* (Parda Tursun).

Juldur so’zi kiyim-boshga emas, ko’rpa-yostiq va boshqa buyumlarga nisbatan ishlatilganda *uvada*ga nisbatan kuchsizroq ma’noni bildiradi. Ko’rinadiki, uvada so’zi har ikkala holatda ham “eski” semasining kuchli darajasini bildiruvchi so’zdir.

Demak, nutqda ma’nodosh so’zlardan ma’lum ma’noning turli darajalarini ifodalash uchun foydalaniladi, ya’ni vaziyatga qarab ma’lum belgining turli darajalarini ifodalash uchun ma’nodosh so’zlarni tanlab qo’llaymiz.

Ko’rinadiki, ma’nodosh so’zlarda ma’noning kuchayib borish darajasini aniqlashimiz mumkin. Jumladan, *qiyin, mushkul, mahol, og’ir, mashaqqatli, sermashaqqat, dushvor* ma’nodosh so’zlarida qiyinchilik tug’diruvchi, osonning aksi ma’nosining ifodalanish darajasini aniqlaylik.

Ushbu ma’nodosh so’zlarda ma’noning kuchayib borishini quyidagicha ko’rsatish mumkin:

Qiyin ⇨ shkul ⇨ ⇨ Ma ⇨ qatli Sern ⇨ qqat

Demak, *mushkul* qiyinlik belgisini kuchliroq ottenkada ifodalaydi. *Mahol* ma’noni yana ham kuchaytiradi. *Mashaqqatli, sermashaqqat* qiyinlik belgisini *mahol* so’ziga nisbatan ham kuchli ottenkada ifodalaydi. Bu erda *ser-* prefiksi *mashaqqatli* so’ziga qo’shilib, ma’noning yanada kuchayishiga olib kelayapti. Bu so’zning eskirgan, kitobiy varianti ham mavjud: *dushvor.* Masalan, U zamonlarda, o’g’lim, bizga o’xshagan odamlarning to’rt tanga orttirishi *qiyin* edi (A.Qahhor). Yo’lchi yolg’iz qolarkan, o’zi uchun *mushkul* masalani, ya’ni xo’jayin oldiga kirib, undan pul talab qilishni o’yladi (Oybek). Qiz ikkovi bir-birini o’lguday yaxshi ko’rgandan keyin ayirish *mahol*! (H.H.). Sen shularni ayt jangchilarga! *Mashaqqatli,* ammo muqarrar g’alabadan gapir! (I.Rahim). Ular o’sha *sermashaqqat* yillarda sovuqlarga, ko’pincha ochlikka ham bardosh berib... mamlakatni g’alaba bilan uzluksiz ta’minlab turdilar (Gazetadan).[61]

Bundan tashqari ma’no(mazmun)dosh ibora, gaplar ham bo’lishi mumkin. Jumladan:

- *hayron bo’lish – yoqasini ushlamoq;*
- *azoblamoq – boshida yong’oq chaqmoq;*
- *ardoqlamoq – er-ko’kka ishonmaslik*.

Yoqasini ushlamoq, boshida yong’oq chaqmoq, er-ko’kka ishonmaslik oddiygina hayron bo’lish, azoblash, ardoqlash emas, balki ortiq darajada hayron bo’lish, nihoyat darajada azoblash, o’ta darajada ardoqlashdir. Demak, bu iboralar ma’nosida **“o’ta**

darajada” degan qo’shimcha ma’no mavjud. Umuman olganda, har qanday iborada ma’no kuchaytirish belgisi mavjud.

Ko’rinadiki, ma’nodosh so’zlarni ajrata bilish, ularning ma’no ottenkalaridagi nozik farqlarni to’g’ri farqlash va ularning har biridan o’z o’rnida to’g’ri foydalanish fikrni to’g’ri va aniq ifodalashda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, o’tilgan qoidani puxta o’zlashtirish va uning amaliy nutqda qo’llay olish uchun o‘quvchilar qiyoslash , analiz va sintez, umumlashtirish va abstraktlash, induktiv va deduktiv xulosa chiqarish kabi malakalarni ortirib borishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmanov A. Tanlangan asarlar. I jild. – T.: Akademnashr, 2012.
2. Zakirova X. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning til kompetentligini shakllantirish usullari. Respublika ilmiy va amaliy anjuman materiallari IV chiqish. ADU, 2015
3. Xojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati. Toshkent: O'zb.FA , 1963.

INTERNET MANBALARI:

1. www.ziyonet.uz
2. Wikipedia.uz
3. Book.uz